XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firusa Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyorova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbonov Xayrilla	
MAMLUKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJIIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	



BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI

Rasulov Shuxrat G'ayratovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslari hamda uni qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni boshqarish tizimiga integratsiya qilish masalalari tadqiq etilgan. Qurilish sohasining yuqori kapital sig'imliligi, ekologik ta'sir darajasining sezilarli bo'lishi hamda ijtimoiy ahamiyati barqaror rivojlanish tamoyillarini DXSh loyihalarini boshqarishda qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Maqolada barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari DXSh boshqaruv mexanizmlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, ESG tamoyillarini qurilish sohasidagi DXSh loyihalariga joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, qurilish sohasi, boshqaruv mexanizmlari, ESG, infratuzilma loyihalar.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of the sustainable development concept and its role in managing public-private partnerships (PPPs) in the construction sector. The high capital intensity of construction projects, their long-term nature, and significant environmental and social impacts necessitate the integration of sustainable development principles into PPP management systems. The study analyzes the economic, social, and environmental dimensions of sustainable development in the context of PPP governance in construction. Particular attention is paid to the application of ESG (Environmental, Social, Governance) principles as a tool for enhancing management efficiency and ensuring the long-term sustainability of construction projects.

Key words: sustainable development, public-private partnership, construction sector, management mechanisms, ESG, infrastructure projects.

Аннотация. В статье исследуются теоретико-методологические основы концепции устойчивого развития и особенности её применения в системе управления государственно-частным партнёрством (ГЧП) в строительной отрасли. Высокая капиталоемкость строительных проектов, их значительное воздействие на окружающую среду и социальную сферу обуславливают необходимость интеграции принципов устойчивого развития в управление проектами ГЧП. В работе проанализированы экономические, социальные и экологические компоненты устойчивого развития в контексте управления ГЧП в строительстве. Особое внимание уделено внедрению принципов ESG как инструмента повышения эффективности управления и обеспечения долгосрочной устойчивости проектов.

Ключевые слова: устойчивое развитие, государственно-частное партнёрство, строительная отрасль, механизмы управления, ESG, инфраструктурные проекты.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan universal strategik yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, infratuzilmani yangilash, aholi turmush sifatini oshirish, ish o'rinlari yaratish hamda investitsiyaviy faollikni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, mazkur sohaning yuqori kapital sig'imliligi, uzoq muddatli loyihalar ulushining kattaligi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish omillari barqaror rivojlanish tamoyillarini boshqaruv tizimiga yanada chuqur integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasidagi yirik infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish va samarali boshqarishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari tobora keng qo'llanilmoqda. Davlat tomonidan strategik maqsadlarni belgilash va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni ta'minlash, shuningdek,



xususi sektorning investitsiya, innovatsiya va boshqaruv tajribasini jalb etish imkoniyatlari DXShni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda samarali instrument sifatida namoyon etadi. Bunda qurilish sohasida DXSh loyihalarini amalga oshirish jarayonida iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy yo'naltirilganlik va ekologik xavfsizlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishni talab qiladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining qurilish sohasida davlat-xususi sheriklikni boshqarishdagi o'rni, avvalo, loyihalarni rejalashtirish, moliyalashtirish, amalga oshirish va monitoring qilish jarayonlariga iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik mezonlarni kompleks joriy etish bilan belgilanadi. Ayniqsa, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini DXSh boshqaruv mexanizmlariga integratsiya qilish qurilish loyihalarining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlash, risklarni samarali boshqarish hamda davlat va jamoatchilik manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda mazkur yondashuvlarni keng joriy etish jarayonida institutsional takomillashtirish ehtiyoji, huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish va baholash mezonlarini tizimlashtirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni transformatsiya qilish, shaharsozlik va infratuzilmani jadal rivojlantirish sharoitida qurilish sohasida davlat-xususi sheriklikni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda so'nggi yillarda DXShga oid huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashib borayotgan bo'lsa-da, qurilish sohasida ushbu mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligi, ijtimoiy ta'siri va ekologik natijalarini kompleks baholashga qaratilgan ilmiy-metodologik yondashuvlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni dolzarb vazifalardan biriga aylantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qurilish sohasida davlat-xususi sheriklik (DXSh) mexanizmlari asosida boshqaruv tizimini shakllantirish hamda uni takomillashtirish masalalari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, A. Bordman va F. Vining [1] DXSh loyihalarida samaradorlikni baholash hamda boshqaruv mexanizmlarini tanlashning nazariy asoslarini izohlagan bo'lsa, G. Xodj va S. Grev [2] DXShning institutsional yondashuvlari, davlat va xususi sektor o'rtasidagi funksional taqsimot hamda boshqaruv muvozanati masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, T. Bovayrd [3] DXSh loyihalarida xizmat sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv natijadorligini mustahkamlash bo'yicha konseptual yondashuvlarni asoslab bergan.

MDH mamlakatlari ilmiy maktablarida ham DXSh mexanizmlarini rivojlantirish masalalari turli jihatlarida tadqiq qilingan. Jumladan, I. Ansoff [4] strategik boshqaruv yondashuvlari orqali yirik loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga urg'u bergan. V. Antonov [5], V. Bagov [6], A. Bandurin [7] hamda N. Berzon [8] kabi olimlarning izlanishlarida qurilish sektorida DXShdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari, moliyalashtirish manbalari hamda risklarni boshqarish masalalari tahlil qilingan.

O'zbekiston sharoitida DXShni rivojlantirish va qurilish sohasida qo'llash bilan bog'liq ilmiy-nazariy hamda metodologik yondashuvlar respublikamiz olimlarining tadqiqotlarida ham aks etgan. Xususan, N. Yusupov va F. Karabayev [9] BMT Taraqqiyot dasturi doirasida DXShning shakllanishi va rivojlanishiga oid ayrim nazariy-uslubiy jihatlarni bayon qilgan. Shuningdek, U. Jumaniyozov [10] uy-joy qurilishi sohasida DXSh mexanizmlarini korporativ boshqaruv elementlari bilan uyg'unlashtirish masalalarini alohida yo'nalish sifatida ko'rib chiqqan.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish konsepsiyasi sharoitida qurilish sohasida DXShni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mazkur holat tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi hamda ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil olib borish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolamzni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasida davlat-xususi sheriklik loyihalarining iqtisodiy samaradorligi, avvalo, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni qaytarish muddatlarini oqilona belgilash hamda risklarni taqsimlash mexanizmlarini samarali tashkil etish bilan izohlanadi. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy komponenti DXSh boshqaruv tizimida uzoq muddatli iqtisodiy foydaga erishish, byudjet yuklamasini maqbullashtirish va xususi kapitalni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali namoyon bo'ladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasidagi DXSh loyihalarida moliyaviy modellashtirish jarayonida barqarorlik ko'rsatkichlarini yanada chuqurroq hisobga olish investitsion risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.



Iqtisodiy jihatdan barqaror DXSh boshqaruv mexanizmi kapital qo'yilmalarining maqbul tuzilmasini shakllantirish, davlat kafolatlari hamda rag'batlantiruvchi moliyaviy instrumentlardan aniq mezonlar asosida foydalanishni talab etadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ESG tamoyillarining "G" — korporativ boshqaruv komponentini DXSh loyihalarida qo'llash shartnomaviy munosabatlarning shaffofligini oshiradi, manfaatlar uyg'unligini ta'minlaydi va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy komponenti qurilish sohasidagi DXSh loyihalarining aholi turmush sifatini oshirish, mehnat bozorini rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani kengaytirishga qo'shayotgan hissasi orqali ifodalanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy omillarni boshqaruv qarorlarida tizimli hisobga olish loyihalarining jamoatchilik tomonidan ijobiy qabul qilinishini kuchaytiradi hamda ularning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

DXSh boshqaruv mexanizmlariga ESG tamoyillarining "S" — ijtimoiy komponentini joriy etish loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida ijtimoiy ta'sirni baholash, mehnatni muhofaza qilish, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash hamda jamoatchilik bilan muloqotni mustahkamlash imkonini beradi. Bu esa qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Barqaror rivojlanish komponentlarining qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklikni boshqarishga ta'siri [11]

Barqaror rivojlanish komponenti	DXSh boshqaruvidagi asosiy yo'nalishlar	Mavjud muammolar	ESG tamoyillari asosida takomillashtirish yo'nalishlari	Kutilgan natijalar
Iqtisodiy komponent	Moliyalashtirish, investitsiya jalb qilish, risklarni taqsimlash, shartnomaviy munosabatlar	Moliyaviy risklarning yuqoriligi, investitsiya qaytishi noaniqligi, shaffoflik yetarli emas	G (Governance): shaffof boshqaruv, hisobdorlik, moliyaviy modelashtirishda ESG indikatorlarini joriy etish	Investitsiyaviy jozibadorlik oshishi, iqtisodiy samaradorlik va barqaror moliyaviy natijalar
Ijtimoiy komponent	Bandlikni ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, jamoatchilik bilan hamkorlik	Ijtimoiy risklarning yetarli baholanmasligi, aholi manfaatlarining cheklangan inobatga olinishi	S (Social): ijtimoiy ta'sirni baholash, mehnat muhofazasi, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish	Loyihalarning ijtimoiy qabul qilinishi oshishi, ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishi
Ekologik komponent	Tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitga ta'sirni boshqarish, ekologik standartlar	Ekologik risklar, energiya samaradorligining pastligi, chiqindilar hajmining ortishi	E (Environmental): energiya samaradorligi, "yashil" texnologiyalar, ekologik monitoring	Atrof-muhitga salbiy ta'sir kamayishi, ekologik barqaror qurilish loyihalari
Integral yondashuv	Strategik rejalashtirish, kompleks boshqaruv	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o'rtasidagi muvozanatning yetishmasligi	ESG integratsiyasi: kompleks baholash tizimi, barqaror qaror qabul qilish	DXSh loyihalarining uzoq muddatli barqarorligi va boshqaruv samaradorligi oshishi

Tadqiqot natijalari ijtimoiy barqarorlikka yo'naltirilgan boshqaruv qarorlari qurilish loyihalarining uzoq muddatli samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Qurilish sohasining atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lganligi sababli barqaror rivojlanishning ekologik komponenti DXSh boshqaruv tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalariga ko'ra, ekologik mezonlarning yetarli darajada inobatga olinmasligi resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi, chiqindilar hajmining ortishiga hamda ekologik risklar kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

ESG tamoyillarining "E" — ekologik komponentini DXSh loyihalariga joriy etish qurilish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni qo'llash va atrof-muhitga ta'sirni monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada ekologik risklar kamayadi, loyihalarning barqarorligi mustahkamlanadi hamda jamoatchilik ishonchi ortadi.

O'tkazilgan kompleks tahlil natijasida ESG tamoyillarini qurilish sohasidagi DXSh boshqaruv mexanizmlariga tizimli joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi. ESG asosidagi boshqaruv modeli DXSh loyihalarini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik indikatorlarni ham qamrab oladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ESG mezonlari asosida qaror qabul qilish qurilish sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, risklarni kamaytirish hamda davlat va xususiy



sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bois, ESG tamoyillarini DXSh boshqaruv tizimiga integratsiya qilish qurilish sohasida barqaror rivojlanishga erishishning samarali mexanizmi sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari barqaror rivojlanish konsepsiyasini qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni boshqarish mexanizmlariga integratsiya qilish zamonaviy iqtisodiy sharoitda strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Qurilish sohasining yuqori kapital sig'imliligi, uzoq muddatli loyihalar ulushining kattaligi hamda ekologik va ijtimoiy ta'sir darajasining yuqoriligi DXSh loyihalarini boshqarishda faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham ta'minlash zarurligini belgilab beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari qurilish sohasidagi DXSh boshqaruv mexanizmlarida o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy komponent moliyaviy barqarorlik, investitsiya risklarini kamaytirish va kapital jalb qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, ijtimoiy komponent aholi manfaatlarini himoya qilish, mehnat bozorini rivojlantirish va loyihalarning jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Ekologik komponent esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish orqali qurilish loyihalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini qurilish sohasidagi DXSh loyihalariga joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berildi. ESG asosidagi boshqaruv yondashuvi loyihalarni baholash va qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish, risklarni kompleks baholash va davlat hamda xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, amalda ESG mezonlarini qo'llashda institutsional va metodologik takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish ilmiy-amaliy yechimlarni talab qiladi.

Olib borilgan tahlil va xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishda barqaror rivojlanish tamoyillarini majburiy mezon sifatida joriy etish, jumladan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlardan iborat kompleks baholash tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

2. DXSh boshqaruv mexanizmlariga ESG tamoyillarini integratsiya qilish orqali loyihalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, korporativ boshqaruv shaffofligini ta'minlash va risklarni samarali taqsimlash tizimini takomillashtirish zarur.

3. Qurilish sohasidagi DXSh loyihalarini uchun ijtimoiy va ekologik ta'sirni baholash bo'yicha yagona metodologik yondashuv ishlab chiqilishi hamda ushbu baholash natijalarini qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

4. Davlat tomonidan DXSh loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish, jumladan "yashil" qurilish texnologiyalarini joriy etgan loyihalar uchun moliyaviy va soliq imtiyozlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

5. Qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklikni boshqarishda institutsional salohiyatni oshirish, mas'ul tashkilotlar va mutaxassislar uchun ESG va barqaror rivojlanish bo'yicha malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi qurilish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining boshqaruv samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda iqtisodiyotning ushbu tarmog'ida uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boardman, Anthony and Vining, Aidan. 2010. «Assessing the economic worth of public-private partnerships»;
2. Hodge, G.A., Greve, C. and Boardman, A. (Eds). International Handbook in Public-Private Partnerships (IHPPP), Edward Elgar, UK., pp. 159–186;
3. Bovaird, Tony. 2010. «A brief intellectual history of the public-private partnership movement», (Eds) IHPPP, Edward Elgar, UK., pp. 43;
4. Ansoff I.X. Novaya korporativnaya strategiya // Per. s angl. – SPb: Piter Kom, 1999. – 416 s.;
5. Antonov V.G. i dr. Korporativnoe upravlenie: uch. posobie. – M.: INFRA-M, 2010. – 288 s.;
6. Bagov V.P. Korporativnyy menedjment. – M.: Izd-vo REA, 1999. – 246 s.;
7. Bandurin A.V. Deyatel'nost korporatsii: monografiya. – M., 1999. – 600 s.;
8. Berzon N.I. i dr. Aktsionernoe obshchestvo: kapital, pravovaya baza, upravlenie. – M.: Finstatinform, 1995. – 156 s.;
9. Yusupov N., Karabayev F. Teoriya i praktika gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. Uchebnyy modul / Pod redak. A.E. Shayxova. Tashkent, 2013 / www.undp.uz;
10. Jumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasi uchun diss. avtoreferati. – T.: TDIU, 2017. – 58 b.;



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
